Security strategies used to minimize the risk of security breaches in the first place. This can be as simple as a physical barrier such as a fence, gate or wall. However, implementing the latest security technology can be a barrier to both physical and cyber security breaches. CCTV cameras, IoT-enabled commercial door locks, and password protection are all examples of security technology that can stop people from trying to gain unauthorized access to space or data.

Today, security technology falls into two main categories: physical security and cyber security. While there are some key differences in design and use cases for these types of security technologies, they both have the same value. Indeed, the best security strategies approach physical and cyber as a joint effort, also known as security convergence. also called Understanding the differences between these security technology products, as well as how they work together to support each other, can help companies better prepare for the future of security.

Physical security is the methods used to protect against physical access or movement into a space, including the tools and technologies used to monitor physical spaces and people's movements in that environment. The three main components are access control, monitoring and testing. Some organizations are reluctant to invest in the latest security technology trends for this sector, but physical security also plays an important role in protecting data and information. With the latest innovations and cloud security trends, physical security technology is becoming smarter, with new capabilities to communicate with other systems and improve incident response. One of the reasons physical security trends in 2022 point to cloud-based software and technology that leverages artificial intelligence is interoperability.

Cybersecurity is a broad way of talking about protecting digital assets, and cybersecurity refers to strategies that protect data and networks. Cybersecurity, as well as its branches of infosec and information technology security, are gaining more attention among security industry trends. Recent



security breach news often includes stories of hackers gaining access to sensitive information by bypassing cybersecurity controls or breaching IT security systems. Since this type of technology is used to protect digital assets from internal and external threats, every organization needs to be aware of the latest cyber security trends to avoid becoming a victim. Knowing the different types of cybersecurity systems is key to implementing best practices.

Looking at the top security trends in 2022, it's clear where adaptive technology is heading the industry. The future of security technology relies heavily on new ways to centralize data and automate operations. Cloud systems, AI-powered software, and stronger IoT connections are key to managing the new security landscape. As organizations look for new ways to make workplaces more efficient and support a sustainable hybrid work model, the right security technology plays a critical role in quickly adapting to the needs of tenants and employees, as well as protecting data and information. . a host of new cyber security threats.

References

1. Decree of the President of the Republic of Uzbekistan "On approval of the national strategy of the Republic of Uzbekistan on human rights"
2. "Cyber security against cybercrime" Abdurasul IMINOV, head of the Department of Information Technologies of the Ministry of Internal Affairs, lieutenant colonel
3. "Guide to security technologies and trends in 2022" e-guide



TEKNOLOGIYA FANINING DIDAKTIK TAMOYILLARI

Xakimova Gulmira Shuxratjonovna
Muyassarxon Turg'unova Bekpulatovna

Namangan viloyati Norin tuman
19-17 maktab texnologiya fani o'qituvchilari
996196187 gulmiraxakimovna@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola texnologiya fanida didaktik tamoillari haqida fikr mulohazalar keng yoritilgan bo'lib umumta'lim maktablarida metodik qo'llanma sifatida foydalanish tavsiya etiladi.

Tayanch so'zlar: qonuniyat, onglik, faollik, ilmiylik, tizimlilik, ko'rsatmalilik, ta'lim, tarbiya.

Raqamli iqtisodiyotga moslashgan, shiddat bilan rivojlanayotgan bir davrda texnologiya fanining o'rnini beqiyosdir. Texnologiya fanidagi onglik va faollik Mehnat ta'limi o'quvchisi qilayotgan ishini mazmunini yaqqol tasavvur qilgandagina ishga ongli ravishda kirishadi. Bu tamoyil o'quvchilarda ilmiy bilimlarni hamda ularni amalda qo'llash metodlarini ongli va faol egallab oladigan, ularda ijodiy tashabbuskorlik va o'quv faoliyatida mustaqillik, tafakkur, nutqi rivojlanadigan bo'ladi. O'qitishdagi onglik tamoyili o'quvchilardagi ta'lim jarayonining aniq maqsadlarini tushunish, o'rganilayotgan dalil, hodisa, jarayonlar va ular o'rtasidagi bog'lanishni tushungan holda o'zlashtirib olish, o'zlashtirilgan bilimlarni amaliy faoliyatda qo'llay bilish kabi me'yorlarni anglatadi. O'quvchilardagi mavjud bilim va ko'nikmalariga tayanib, obrazli taqqoslash usulidan foydalanib, har bir so'z va gapning tom ma'nosini ochib berish qoidasi.

O'quvchilarning o'zaro o'qitish kuchidan unumli foydalanib, qo'yilgan savollarga jamoa bo'lib javob topish qoidasi. O'quv fanini hech qachon dars markaziga qo'ymay, dars markazida doimo o'quvchi turishini, uning shaxsi shakllanayotganini bilgan holda talabaga ta'limiy ta'sir o'tkazish qoidasi. O'qitish jarayoni yanada muvaffaqiyatli o'tishi uchun, har bir tushuncha berilganidan keyin, uni bir necha misollar bilan mustahkamlash qoidasi. Hech qachon o'qituvchi aytganlarini qaytarish, birovlardan ko'chirish va aytib turish hollariga yo'l qo'ymaslik bilan, o'quvchi talabalarni mustaqil fikrlashga va harakat qilishga o'rgatish qoidasi. Berilayotgan bilimni har tomonlama tahlil qilib berish yo'li bilan bolalarda ijodiy tafakkurni rivojlantirish qoidasi. Texnologiya ta'limida ilmiylik va tizimlilik tamoyili-o'quvchilarga o'rgatish uchun ilmiy jihatdan asoslangan, amalda sinab ko'rilgan ma'lumotlar berilishini talab etadi. Ularni tanlab olishda fan va texnikaning eng so'ngi yutuqlari va kashfiyotlaridan foydalanish kerak.

Ilmiy bilimlarni egallash jarayonida o'quvchilarda ilmiy dunyoqarash, tafakkur rivojlanadi. Har bir darsda o'qitiladigan o'quv materialining ilmiy mazmuni keng va chuqur bo'lishi o'quvchida nafaqat bilim, balki tafakkur hosil qilishi hamda uning ijodiy qobiliyatini shakllantirishi kerak. Buning uchun esa o'qituvchi o'z ilmiy saviyasini izchil ravishda oshirib borishi zamonaviy pedagogik texnologiyalar, kashfiyotlar va ilmiy yangiliklardan xabardor bo'lishi lozim.

O'quvchi o'rganayotgan bilimlar, albatta nazariy tasdiqlangan va amalda sinalgan bo'lishi kerak.

Izchillik tamoyili - elementar didaktika qoidalariga amal qilishni talab etadi: Oddiydan murakkabga, ma'lumdan no'malumga. Mavzularni o'tishda yoki texnologik muammolarni yechishda o'qituvchi darsni shunday rejalashtirishi kerakki, o'quvchilarning hammalariga tushunarli bo'lsin.

Bunda ham o'quvchilarni yosh va individual xususiyatlari hisobga olinishi kerak.

Nazariya bilan amaliyot birligi. Ilmiy bilimlar kishilarning ishlab chiqarish faoliyati ehtiyojlari asosida paydo bo'lib, ana shu faoliyatga xizmat qilganligi va hayot bilan bog'langanligi sababli, bu bilimlarni egallash uchun ularni mazmunan o'zlashtirish va amalda qo'llash lozim. O'quvchilarni amaliy faoliyatga tayyorlash nazariy bilimlarni egallash jarayonidan boshlanadi. Keyinchalik u tajriba va amaliy mashg'ulotlarda davom ettiriladi. Bu mashg'ulotlarda o'quvchilar o'qituvchi rahbarligida tajriba sharoitida olingan bilimlarini tekshiradilar, mustahkamlaydilar, chuqurlashtiradilar. Ularni amalda qo'llanish ko'nikma va malakalarini hosil qiladilar.

Xulosa qilib aytganda texnologiya fanida har bir bilim nazariy va har doim amaliy hamohang bo'lishi shart. bugungi kun yoshlari ijodkor va yaratuvchidir. bunday yoshlarga to'g'ri saboq berish va kerakli yo'lni ko'rsatish biz ustozlar zimmasidagi asosiy kuchdir.



Foydalanilgan adabiyotlar

1. Texnologiya fanni o'qitish metodikasi Z.D. Rasulov Sh. H Quliyeva A.R Jo'rayeva Buxora- 2020
2. Texnologiya fanni o'qitish metodikasi X. R. Sanaqulov D.P Xodiyeva Toshkent 2018
3. www.ziyonet



ГРУНТЛИ ТЎҒОНЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ ХАВФСИЗЛИГИНИ ОШИРИШ

Палуанов Данияр Танирбергенович

Тошкент давлат техника университети профессори, т.ф.д.

Телефон: +998-97-410-28-32

doni_pol@mail.ru

Оспанова Дилбар Кеулимжаевна

Қорақалпоқ давлат университети катта ўқитувчиси

АННОТАЦИЯ. Мазкур ишда грунтли тўғонлардан самарали фойдаланиш, хавфсизлиги ва ишончилигига таъсир этувчи омиллар, сел ва тошқин оқимлари натижасида фойдаланилаётган гидротехника иншоотларига таъсири масалалари кўриб чиқилган.

КАЛИТ СЎЗЛАР: сув омборлари, гидротехника иншоотлари, грунтли тўғонлар, сел ва тошқинлар, хавфсизлик, ишончилик.

Грунтли тўғонлар – сув димловчи иншоотларнинг энг кенг тарқалган тури бўлиб, улар турли мақсадлар учун гидроузелларнинг аксарият қисмидир ва гидромелиорация қурилишида кенг қўлланилади.

Грунтли тўғонлар, қоида тариқасида, иншоот танаси сув ўтказмайдиган қилиб лойиҳаланади ва уларнинг тепаси орқали сувнинг ошиб ўтишига йўл қўйилмайди (фақат камдан-кам ҳолларда тошқин сувларини махсус конструкцияли кичик тўғонларнинг тепаси орқали ўтказиш кўзда тутилади). Шу муносабат билан, грунтли тўғонларни қуриш махсус сув чиқарувчи ва сув ташловчи иншоотларни ўрнатиш зарурати билан туташтирилади.

Грунтли тўғонлар хавфсизлигини баҳолаш бир қанча сабабларга, лойиҳа ва қурилиш ишларининг сифати, эксплуатация даврида табиий ва антропоген таъсирлар, эксплуатация қилиш, техник ҳолати ва бошқа омилларга боғлиқ ҳолда аниқланади. Яъни, грунтли тўғонларнинг ишончилиги, унинг чўкиши ва силжиши меъёрида бўлишлиги, сув ташловчи ва сув чиқарувчи иншоотлардаги носозликларини олдини олиш ва сув ўтказиш қобилияти ҳар доим меъёрий ҳолатда бўлишлиги, сув омборидаги механик жиҳозларнинг ишдан чиқиши (затвор пазларида тиқиндиларнинг тўпланиши, ҳаракатланмай қолиши, затворларни ҳаракатлантирувчи механизмлар ёки улар элементларининг ишдан чиқиши) олдини олишлик ва шу каби бошқа омилларга алоҳида эътибор қаратиш лозим.

Республикада фойдаланиб келинаётган грунтли тўғонларнинг ёши 50 йил ва ундан ортиқни ташкил қилган бўлиб, уларнинг техник ҳолати кўп вақтдан бери узлуксиз ишлатилиши, етарли ҳажмда ва сифатли таъмирлаш ишларини олиб борилмаслиги оқибатида уларнинг техник имконияти ва ишончилигини камайиш ҳолатлари кузатилмоқда. Бу эса, иншоот эксплуатациясининг ишончилилик даражасини пасайишига олиб келмоқда ҳамда уларнинг конструкциялари ва элементларига жиддий талофатлар етказмоқда.

Омиллар ва етакчи мутахассислар томонидан олиб борилган тадқиқотлар ва муҳандислик изланишлари таҳлиллари натижалари шуни кўрсатмоқдаки, грунтли тўғонларнинг хавфсизлигига таъсир этувчи омиллар иншоот тепаси орқали сувнинг ошиб ўтиши, иншоот танаси ва заминидаги фильтрация, иншоот қияликларининг барқарорлиги ҳисобланади. Статистика маълумотларига кўра, иншоотлар заминининг бузилиши (40% ни ташкил этади) дан кейин грунтли тўғонлар тепасидан сувнинг ошиб ўтиши (30%) иншоотларга энг катта хавф туғдиради.

Муаллифлар томонидан грунтли тўғонларда иншоот тепаси орқали сувнинг ошиб ўтиши натижасида вужудга келган вазиятлар ўрганилган ва таҳлил қилинган. Натижада грунтли тўғонлар тепаси орқали сувнинг ошиб ўтиши учта асосий сабабларга кўра вужудга келади: тўғон тепасининг ҳаддан ташқари чўкиши, меъёрдан ортиқ сув тошқини ёки юқорида жойлашган иншоотнинг бузилиши, сув ташлаш иншоотларининг ишдан чиқиши. Олиб борилган изланишлар таҳлили шуни кўрсатмоқдаки, ҳозирги кунда нафақат республикада, балки хориж давлатларида грунтли тўғонлар тепасининг чўкиши ва сел тошқинлари натижасида вужудга келадиган грунтли тўғонлар тепаси орқали сувнинг ошиб ўтиши масалалари жуда катта хавф солмоқда [1].

Табиатнинг фавқулодда ҳолатлари сўнгги ўн йилликларда республика ҳудудида уларнинг ўсиши тенденцияси кузатилмоқда. Қоида тариқасида, фавқулодда ҳолат – муайян ҳудуддаги



аварияга олиб келиши мумкин бўлган, шунингдек, гидротехника иншоотлари (ГТИ)нинг аварияси натижасида вужудга келган, инсонлар қурбон бўлишига, улар соғлиғига ёки атроф-муҳитга зарар етказилишига, жиддий моддий талофатларга ва инсонларнинг ҳаёт фаолияти шароитлари бузилишига олиб келиши мумкин бўлган ёки олиб келадиган вазият. Сув тошқини, сел ва бошқа хавфли табиий ҳодисалар одатий ҳолга айланиб бормоқда. Ўтказилган тадқиқотлар натижалари шуни кўрсатмоқдаки, глобал иқлим ўзгариши оқибатлари ошиб бориши билан табиий хавф-хатарларнинг пайдо бўлиши частотаси тобора кўпайиб бормоқда.

Минтақада охириги ўн йилликда, айниқса, 2015 йилдан кейин иқлим ўзгариши, ҳаво ҳароратининг исиб кетиши баҳор ва ёз ойларидаги жадал ёмғирлар натижасида сел-тошқинлар сони тез суръатлар билан ўсиб бормоқда. Ўнлаб дақиқалар ёки бир неча соат ичида ҳисоблаб чиқилган бундай қисқа муддатли оқимлар сув омборларининг грунтли тўғонлари элементлари ва бошқа ГТИни, кўприкларни, йўлларни вайрон қилади, каналларни, далаларни ва бошқа экин майдонларини сув тошқини билан тўлдиради. Шу билан бирга, сел-тошқин республика тоғлари ва тоғ олди ҳудудларда жойлашган аҳоли пунктларига таҳдид солмоқда [2].

Сув омборидан экстремал шароитда сув ўтказиш жуда хавфли бўлиб, иншоотларда ва айниқса пастки бьефда ноҳуш ёки авария ҳолатлари рўй бериши мумкин. Масалан, бетон ёки металл қопламаларнинг емирилиши, механик жиҳозларнинг ишдан чиқиши, пастки бьефнинг ювилиши ва ҳ.к.

Жорий йилнинг ўзида республиканинг қатор ҳудудларида ҳалокатли селлар кузатилган. Ҳозиргача сув тошқинлари натижасида сув омборларининг ГТИ, аҳоли хонадонлари, ижтимоий объектлар ва коммуникация тармоқларига зарар етказилган. Март-май ойларида кучли ёғингарчилик оқибатида Наманган, Фарғона, Андижон, Сурхондарё, Қашқадарё, Самарқанд, Навоий, Бухоро, Жиззах, Сирдарё ва Тошкент вилоятларида 20 дан ортиқ йирик сел ва кўчкилар содир бўлган. Юқори тоғли ҳудудларда ёмғирларнинг бир дарё ўзани бўйлаб оқиб келиши ва бир неча сой сувларининг бирлашиши оқибатида эса аҳоли яшаш жойларида сел ва сув тошқини юзага келган.

Кучли жала ёғиши вақтида агарда сув омбори максимал тўлдирилган бўлса, сув омборидаги сув сатҳини кўтарилиб кетишини олдини олиш мақсадида уни тезда бўшатиш ва сув омборига хавф туғдирмайдиган сув микдорига олиб келиш чораларини кўриш керак.

Хулоса сифатида, минтақанинг янада барқарор ривожланиши ва фойдаланилаётган иншоотларнинг таъсир доирасида аҳолининг хавфсизлиги кўп жиҳатдан мазкур объектларнинг ишончлилиги ва хавфсизлигига боғлиқ. Фойдаланиш даврида табиий ва техноген ҳалокатларнинг ўз вақтида олдини олиш табиий, техноген ва иқтисодий фожиалардан юзага келадиган зарарларни бартараф қилишдан кўра анча тежамкор ва самарали ҳисобланади. Иншоотлардан фақат тўғри ва оқилона фойдаланиш лойиҳага тегишли бўлган барча мукамал ғоялардан максимал даражада фойдаланишга имкон беради, фойдаланиш муддати давомида унинг барча элементларининг юқори хавфсизлиги ва ишончлилигини таъминлайди.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Кузнецов Д.В. Сценарий аварии грунтовых плотин при переливе воды через гребень плотины методом анализа дерева отказов // Вестник МГСУ. – М.: 2016. - № 4. – С. 94-107.
2. Paluanov D.T., Ospanova D.K. Results of the study on the evaluation of the technical condition of hydraulic structures of reservoirs // Science and Education in Karakalpakstan. – Nukus, 2022. – 1/2. – P. 63-66.



УДК 622.2

**МУРАККАБ ТУЗИЛГАН ТИК РУДА ТОМИРЛАРИНИ ҚАЗИБ ОЛИШДА
БЛОКНИНГ ОПТИМАЛ УЗУНЛИГИ**

Уразов Жаҳонгир Дилшодович,

Ангрэн кон бошқармаси “Кочбулок” шахтаси бош муҳандиси,
“Олмалик кон-металлургия комбинати” АЖ

Тел: +998 (99) 407-09-60

urazov.jahongir@gmail.com

Аширов Юнус Неъматович,

Шахтақурилиш бошқармаси участка маркшейдери,
“Олмалик кон-металлургия комбинати” АЖ

Тел: +998 (99) 401-02-50

***Аннотация:** Мақолада маълум кон-геологик шароитларга боғлиқ ҳолда блок узунлигининг рудани магазинлаб қазиб олиш тизимларининг техник-иқтисодий кўрсаткичларига таъсир даражаси аниқланади. Мураккаб тузилган тик руда томирларини қазиб олишда блокнинг оптимал узунлигини аниқлаш усули берилади.*

***Калит сўзлар:** руда конларини қазиб олиш, блокнинг оптимал узунлиги, қазиб олиш тизими.*

Ҳозирги вақтда Россия ва МДХ мамлакатларида рангли ва нодир металллар ишлаб чиқариш ҳажмини ошириш тенденцияси кузатилаёпти, ва яқин келажакда ер қарида фойдали қазилмаларнинг сифат ва миқдор йўқотилишини камайтириш билан бирга ишлаб чиқариш ҳажмининг сезиларли даражада ўсиши кўзда тутилган.

Ушбу муаммо, металл ишлаб чиқаришнинг умумий балансида тенглик иштироки сезиларли бўлган ингичка тик тушадиган конларни қазиб оладиган рангли металлургия кон корхоналари учун жуда муҳимдир.

Ушбу корхоналарнинг сифат ва миқдорий кўрсаткичлари хал қилувчи босқиди қазиб олиш тизимларининг параметрларига боғлиқ. Бироқ, тоғ-кон лойиҳалари ва режаларида деярли иқтисодий асос йўқ. Блокнинг қазил қуввати, узунлиги ва баландлигининг ўртача ҳисобланган қийматлари одатда коннинг ўзига хос кон ва геологик хусусиятларини ҳисобга олмаган ҳолда асос қилиб олинади. Натижада, қўлланиладиган технологиянинг самарадорлиги кескин камаяди.

Тадқиқот методологияси

Одатда, тик тушадиган конларни қазиб олиш шахта майдонини қават ва блоklarга бўлиниши билан амалга оширилади. Блокларнинг параметрлари ҳар ҳил бўлади. Ўзбекистон шахталарида, механизациялаш ва қайта ишлаш интенсивлиги даражасига қараб, томирсимон конларда блоklar узунлиги ўртача 40-60 м ташкил қилади. Бироқ, кўплаб конларда кон қазил ишларининг пасайганлиги ва кон-геологик шароитларнинг ўзгариши сабабли блоklar параметрларининг доимий ўзгариши кузатилади.

Жаҳон амалиётини таҳлил қилиш блокнинг параметрларини қўллашнинг рационаллигига қарама-қарши жавобларни беради. Шунинг учун ҳар бир аниқ ҳолатда блокнинг оптимал узунлиги тайёрлаш-кесиш ишлари, рудани етказиб бериш, руданинг йўқотилиши ва сифатсизланишидан зарар минимал ҳаражатлар асосида белгиланиши керак.

Томирсимон конларни қазиб олиш тизимлари параметрлари қазил блоklarининг қуйидаги ўлчамлари билан тавсифланади: баландлиги, кенглиги, узунлиги, қазил ишларининг ҳаракатланиш тезлиги, рудатуширгичлар орасидаги масофа, нимқаватлар, қатламлар, поғоналар баландлиги ва бошқа таркибий элементлар. Юпқатомирли конларни қазиб олиш тизимларининг асосий параметрлари қазил блоklarининг узунлиги, унинг кенглиги ва баландлиги ҳисобланади.



Юпқа томирларни қазиб олиш жараёнида қазиб блокларининг параметрларига қазиб олиш бўшлиғининг қабул қилинган кенглиги сезиларли даражада таъсир қилади. Ишлайдиган конларда қаватнинг баландлиги амалий маълумотлар ва технологик лойиҳалаш нормалари асосида олинади. Блокларнинг узунлиги иқтисодий ҳисоб-китоблар билан аниқланади. Қазиб олиш қуввати ва блокдан олинадиган руда массаси ҳажмининг ошиши билан баъзи техник-иқтисодий кўрсаткичлар яхшиланади (ковжой ишчиларининг меҳнат унумдарлиги ошади, материаллар сарфи камаяди, 1 м^3 руда массасини қазиб олиш тан нархи пасаяди), аммо шу билан бирга бошқа кўрсаткичлар, аксинча, ёмонлашади (руданинг сифатсизланиши ошади, ундаги металл миқдори камаяди, транспорт ва қайта ишлаш харажатлари ошади, якуний маҳсулотнинг бирлик қиймати ошади). Худди шу нарсани илмий-техник адабиётлар [1-4] шарҳи ҳам тасдиқлайди.

Қазиб олиш тизимлари параметрларини баҳолашнинг қабул қилинган мезонлари [1-6] блокдаги ишларнинг хавфсизлиги, блокни қазиб интенсивлиги, 1 тонна рудани тайёрлаш ва қазиб олишнинг минимал бирлик харажатлари, 1000 тонна рудани ажратиш олишга керак бўлган кон лаҳимларининг узунлиги ҳисобланади.

Юпқа томирли конлар учун 1 тонна руда учун блокни тайёрлаш ва қазиб олиш харажатларининг минимал бирлигини мезон деб қабул қилиш ноўрин, чунки 1 тонна руда учун бирлик харажатлари қабул қилинган қазиб қувватига боғлиқ ва блокдаги баланс металл захиралари бирлиги харажатларига тўғри келмайди.

Таҳлиллар шуни кўрсатадики, Кочбулоқ кони шароитида рудани магазинлаб қазиб олиш тизимида 1 тонна руда учун умумий бирлик харажатлари қазиб олиш бўшлиғи кенглиги ошиши билан камаяди, 1 г металлга эса кўпаяди.

Қазиб олиш тизимлари параметрларини баҳолашнинг қўлланиладиган иқтисодий мезонлари, блокдаги 1 тонна рудани тайёрлаш ва қазиб олишнинг минимал бирлик харажатлари асосида [5, 6], шунингдек 1 тонна руда бошига тўғри келадиган тайёрлаш ва эксплуатацион харажатларини оширишдаги тежаш тенглиги бўйича [3], қуввати қазиб олиш бўшлиғи кенглигига мос ёки ундан ошадиган томирларни қазиб олиш учун амал қилади.

Адабиётларни кўриб чиқиш ва мавжуд усулларни таҳлили қилиш шуни кўрсатадики, юпқа томирли конлар учун блокларнинг оптимал узунлигини [1, 7] усули бўйича аниқлаш мақсадга мувофиқдир. Юпқа томирли конлар учун блокнинг оптимал узунлигини баҳолаш учун қабул қилинган усул иқтисодий жиҳатдан энг фойдали қийматларнинг қисқартирилган доираси билан аниқроқ маълумотларни тақдим этади [3, 4].

Усулнинг моҳияти қуйидагича:

Блок узунлигининг тегишли ўсиш қийматини аниқлаймиз, м:

$$\Delta l_1 = \frac{L_{\min}}{n_{\text{бл}} - 1},$$

бу ерда $L_{\min}$ - конда қабул қилинган блокнинг минимал узунлиги, м; $n_{\text{бл}}$ - коннинг йиллик ишлаб чиқариш қувватини таъминлайдиган блоклар сони.

Блок узунлигининг ўсишини аниқлагандан сўнг, техник-иқтисодий таҳлил учун қабул қилинадиган блок узунлигининг бир қатор қийматларини аниқлаймиз, $L_1 = L_{\text{бл}} + \Delta l_1$; $L_2 = L_{\text{бл}} + \Delta l_2$; $L_3 = L_{\text{бл}} + \Delta l_3$ ва ҳ.к.

Камайиб ва ортиб бораётган бирлик харажатларини аниқлаш орқали қазиб олинаётган металл баланс захира бирлигига тегишли, блоклар узунлиги L_1 ва $L_{\text{бл}}$, L_2 ва L_1 , L_3 ва L_2 ва ҳоказо, орасидаги фаркка тўғри келувчи тайёрлаш учун иқтисодий C_m ва эксплуатацион харажатларнинг ўсиши C_s қийматларини топамиз.

Пасайувчи бирлик харажатлар, металл бирлигига боғлиқ бўлган, блок кўтарилмаларини ўтиш ва жиҳозлаш бўйича C_1 , блок орасидаги целиклардаги кесиш ишлари бўйича C_2 , шунингдек шу целиклардаги металлнинг йўқотилишидан иқтисодий



зарар C_3 , атроф тоғ-жинслари минераллашмаган бўлганда куйидаги формулалар билан аниқланади, сўм/йил:

$$C_1 = \frac{C_v}{L_{\text{бл}} \cdot m_{\text{жс}} \cdot \gamma_{\text{жс}} \cdot C_{\text{б}} \cdot R_m}; \quad C_2 = \frac{C_n}{L_{\text{бл}} \cdot H \cdot m_{\text{жс}} \cdot \gamma_{\text{жс}} \cdot C_{\text{б}} \cdot R_m};$$

$$C_3 = \frac{C_u}{L_{\text{бл}} \cdot H \cdot m_{\text{жс}} \cdot \gamma_{\text{жс}} \cdot C_{\text{б}} \cdot R_m},$$

бу ерда C_v , C_n , C_u - 1 м кўтарилмани ўтишга, блок орасидаги целикларда кесиш ишларига ва шу целиклардаги металлнинг йўқотилишидан зарарга харажатлар, сўм; $L_{\text{бл}}$ - блокнинг узунлиги, м; $\gamma_{\text{жс}}$ - томир массасининг зичлиги, т/м³; $C_{\text{б}}$ - томир массасидаги металл таркиби, г/т; R_m - қазиб олишда металлни ажратиш олиш коэффициенти (эксплуатацион йўқотилишлар); H - қаватнинг қия баландлиги, м; $m_{\text{жс}}$ - томирнинг қалинлиги, м.

Ўсувчи бирлик харажатлар, металл бирлигига боғлиқ бўлган, рудаларни ташиш учун C_4 , мустаҳкамловчи материалларга C_5 , бурғулаш ускунасига C_6 , лаҳимларни таъмирлаш ва ушлаб туришга C_7 , шланглардаги сиқилган ҳаво босимининг пасайиши туфайли қазииш ишларида ортиқча тўловга C_8 , куйидаги формулалар билан аниқланади, сўм/йил:

$$C_4 = \frac{r_p \cdot L_{\text{бл}}}{2C}; \quad C_5 = \frac{d \cdot r_{\text{л}} \cdot L_{\text{бл}}}{2C}; \quad C_6 = \frac{0,005 \cdot P \cdot L_{\text{бл}}}{\rho_3 \cdot C};$$

$$C_7 = \frac{2 \cdot C_p \cdot L_{\text{бл}}}{A}; \quad C_8 = \frac{0,0025 \cdot P \cdot L_{\text{бл}}}{\rho_3 \cdot C},$$

бу ерда r_p ва $r_{\text{л}}$ - рудани ташиш учун ва 1 м блок узунлиги учун мустаҳкамлагич материалларга харажатлар, сўм; d - қазииш тизими бўйича мустаҳкамлагич материаллари сарфи, м³/т; P - лаҳим ўтувчининг тариф ставкаси, сўм/смена; ρ_3 - лаҳим ўтувчининг иш унумдорлиги, т/смена; C_p - 1 м штрекни таъмирлаш ва ушлаб туриш учун йиллик харажатлар, сўм; A - блокдан қазиб олинаётган металл захираси, г; C - 1 т руда массасидаги металл таркиби, г.

Комбинат конларидан бирининг юпка томирлари учун ушбу усул билан аниқланган блок узунлигининг мақбул қийматлари шуни кўрсатадики, блокнинг баланс захираларидаги металл таркиби унинг узунлигига таъсир қилмайди, чунки ортиб ва камайиб бораётган ўзига хос харажатлар металл таркибидаги ўзгаришларга мутаносиб равишда ўзгаради. Қазиб олинаётган томирнинг қалинлиги блокларнинг узунлигига сезиларли таъсир кўрсатади.

Бу усул бўйича қазиб олишдаги блокларнинг ҳисобланган оптимал узунликлари А.И. Шмидт [3] усулида аниқланган блокларнинг узунлигидан 10-12% га ошади, бу кўтарилмалар сонони камайитишга имкон беради.

Турли кон-геологик шароитлар учун бирлик харажатлар

$$B_1 = \frac{\beta}{L}; \quad B_2 = \alpha \cdot L,$$

бу ерда B_1 - блокни тайёрлаш учун пасаювчи бирлик харажатлар, сўм/г; B_2 - блокни қазиб олишда ўсувчи бирлик харажатлар, сўм/г; α ва β - кон-геологик шароитларга қараб ўзгарувчан рақамли коэффициентлар.

Ушбу усул билан ҳисобланган блок узунликларининг оптимал қийматлари турғун жинслар учун амал қилади ва кон-геологик шароитларнинг ўзгариши билан уларни созлаш керак.



Хулосалар

1. Илмий-техник адабиётлар шарҳи шуни кўрсатадики, юпка томирларни қазиб олишда блокнинг узунлиги кенг миқёсда ўзгаради (30 м дан 80-100 м гача).
2. Рудани магазинлаб қазиб олиш тизимида блокнинг оптимал узунлиги таёйрлаш-кесиш ишлари, рудани етказиб бериш ва руда йўқотилиш ва сифатсизланишидаги зарарлар учун минимал харажатлар асосида белгиланиши керак. Блокнинг узунлиги ошгани сайин тайёрлаш-кесиш ишлари камаяди, рудани етказиб бериш харажатлари, руданинг йўқотилиши ва сифатсизланиши ошади.
3. Блокнинг узунлигига қазиб олинаётган томирнинг қалинлиги энг катта таъсир кўрсатади. Блокнинг қазиб олиш қуввати ва қазиб олинаётган руда массаси ҳажмининг ортиши билан 1 тонна руда учун умумий харажатлар камаяди ва 1 г металлга кўпаяди.
4. Блокнинг баланс захираларидаги металл таркиби унинг узунлигига таъсир қилмайди.
5. Блокларнинг оптимал узунлигини ҳисоблашнинг такомиллаштирилган усули аниқроқ натижалар беради, чунки у қазиб олиш қуввати ўзгариши билан харажатларнинг кончилик корхонасининг якуний маҳсулотининг таннархини ҳисобга олади.

Адабиётлар рўйхати:

1. М.И. Агошков, В.А. Симаков, В.В. Чудаков. Оптимальная ширина очистного пространства при разработке жильных месторождений. В сб. «Цветметинформация». – М., 1967. – с. 3-8.
2. Х.Г. Кабисов. Системы с магазинированием руды. – Владикавказ, 1993. – 120 с.
3. А.И. Шмидт. Определение длины блока при разработке крутопадающих жил: автореферат диссертации кандидата технических наук. – М., 1969. – 18 с.
4. Б.С. Павловский, М.К. Цехин. Оптимальная длина очистных блоков при разработке тонких жил // Горный журнал. 1974. №4. – с. 33-35.
5. М.И. Агошков, Г.М. Малахов. Подземная разработка рудных месторождений. – М., «Недра», 1966. – с. 651-652.
6. Т.М. Тезиев, Е.И. Соколова, Л.Т. Вазиева. Повышение безопасности разработки сложно-структурных месторождений // материалы Международной научно-практической конференции «Развитие производственной и экологической безопасности в XXI веке. Проблемы и решения». 3-7 июня 2009 г. – Санкт-Петербург, 2009. – с. 77-78.
7. Т.М. Тезиев, А.К. Джиоева. Оптимальная длина блока при разработке сложноструктурных крутопадающих тонких жил // Вестник МГТУ им. Г.И. Носова. 2015. №1. – с. 5-9.

ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ ТАДКИКОТЛАР: ДАВРИЙ АНЖУМАНЛАР: 16-ҚИСМ

Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович

Мусахҳиҳ: Файзиев Фаррух Фармонович

Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 30.09.2022

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000